



UDK: 902:069.51(575.13)

*Suxrob ESHPULOTOV,*

*Mustaqil tadqiqotchi, O'zFA O'zbekiston tarixi muzeyi, Toshkent, O'zbekiston*

*Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti D.Rasulova taqrizi asosida*

## SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASINING XORIJIY DAVLATLARGA OID ARXEOLGIK KOLLEKSIYALARI

Annotsiya

Mazkur maqolada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalarning tarkibi, tarixiy-madaniy ahamiyati va ularni ekspozitsiyaga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kolleksiya Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron va Xitoy hududlaridan kelib chiqqan arxeologik ashyolarni o'z ichiga oladi. Ular O'rta Osiyo va unga tutash hududlar o'rtasidagi qadimgi va o'rta asrlarga oid savdo, migratsiya, diniy ta'sir, hunarmandchilik va me'moriy an'analar almashinuvini yoritishda muhim moddiy manba hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi, arxeologik kolleksiyalar, xorijiy davlatlar, O'rta Osiyo, Buyuk Ipak yo'li, muzey fondlari, ekspozitsiya, metallurgiya, me'moriy bezak, Temuriylar davri, restavratsiya, madaniy aloqalar.

## ARCHAEOLOGICAL COLLECTIONS OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE RELATED TO FOREIGN COUNTRIES

Annotation

This article analyzes the composition, historical and cultural significance, and exhibition potential of the archaeological collections related to foreign countries preserved in the holdings of the Samarkand State Museum-Reserve. The collections comprise archaeological artifacts originating from the territories of Tajikistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Afghanistan, Iran, and China. They constitute an important body of material evidence for the study of trade relations, migration processes, religious influences, the development of craftsmanship, and the exchange of architectural traditions between Central Asia and its neighboring regions during Antiquity and the Middle Ages.

**Keywords:** Samarkand State Museum-Reserve, archaeological collections, foreign countries, Central Asia, Great Silk Road, museum collections, exhibition, metallurgy, architectural decoration, Timurid period, conservation, cultural relations.

## АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ КОЛЛЕКЦИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ- ЗАПОВЕДНИКА, ОТНОСЯЩИЕСЯ К ЗАРУБЕЖНЫМ ГОСУДАРСТВАМ

Аннотация

В данной статье анализируются состав, историко-культурное значение и возможности экспозиционного использования археологических коллекций, относящихся к зарубежным государствам и хранящихся в фондах Самаркандского государственного музея-заповедника. Коллекции включают археологические предметы, происходящие с территорий Таджикистана, Казахстана, Кыргызстана, Туркменистана, Афганистана, Ирана и Китая. Они представляют собой важный вещественный источник для изучения торговых связей, миграционных процессов, религиозных влияний, развития ремесленного производства и обмена архитектурными традициями между Центральной Азией и сопредельными регионами в древности и Средневековье.

**Ключевые слова:** Самаркандский государственный музей-заповедник, археологические коллекции, зарубежные государства, Центральная Азия, Великий шёлковый путь, музейные фонды, экспозиция, металлургия, архитектурный декор, эпоха Тимуридов, реставрация, культурные связи.

**Kirish.** Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlari O'zbekiston va umuman O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Ushbu fondlarda nafaqat Samarqand viloyati va O'zbekiston hududidan topilgan arxeologik ashyolar, balki xorijiy davlatlarga oid kolleksiyalar ham saqlanadi. Mazkur kolleksiyalar Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron va Xitoy hududlaridan kelib chiqqan topilmalar bilan bog'liq bo'lib, ular O'rta Osiyo va unga tutash hududlarning tarixan yagona madaniy makon sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlarga oid arxeologik ashyolar alohida ahamiyatga ega, chunki ular mintaqalararo savdo aloqalari, migratsiya jarayonlari, diniy va madaniy ta'sirlar, hunarmandchilik hamda me'moriy an'analarning tarqalishini yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li orqali shakllangan madaniy almashinuv jarayonlari mazkur

kolleksiyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu ashyolarni O'rta Osiyo tarixiy-madaniy taraqqiyotining moddiy dalillari sifatida o'rganish zarur. Maqolaning asosiy maqsadi Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalarning tarkibi, tarixiy davrlari, ilmiy qiymati, saqlanish holati va ekspozitsion imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shu orqali ushbu kolleksiyalarning O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni yoritishdagi o'rni aniqlashtiriladi.

**Metodlar.** Maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, xronologik, tipologik va muzeyshunoslik yondashuvlaridan foydalanildi. Avvalo, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan xorijiy davlatlarga oid arxeologik ashyolar xronologik tartibda guruhlashtirildi. Ashyolar eneolit va bronza davri, ilk temir va

qadimgi davr, ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar, Temuriylar davri hamda xonliklar davri bo'yicha tasnif qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron va Xitoy hududlariga oid topilmalar O'rta Osiyo madaniy jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Tipologik yondashuv yordamida metall buyumlar, sopol ashyolar, tosh haykalchalar, me'moriy qoplama bo'laklari, mayolika namunalari va bronza buyumlar alohida guruhlariga ajratildi.

Muzeyshunoslik yondashuvi esa ashyolarning ekspozitsion salohiyatini aniqlash, ularni mavzuli ko'rgazmalarda namoyish etish, saqlash va restavratsiya masalalarini baholashda qo'llanildi. Shuningdek, kolleksiyalarning ilmiy talqini ularning kelib chiqish hududi, davri, materiali, funksiyasi va tarixiy-madaniy ahamiyatini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida Xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalar ham saqlanadi. Ular O'rta Osiyo va unga tutash hududlar orasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning moddiy dalili sifatida muhim ahamiyatga molikdir. Ushbu kolleksiyalar Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron va Xitoy hududlaridan kelib chiqqan topilmalardan tarkib topgan. Bu ashyolar mintaqalararo savdo, migratsiya, diniy ta'sir va hunarmandchilik an'alarining o'zaro uyg'unlashuv jarayonlarini yoritishga qo'l kelishi mumkin.

Xorijiy davlatlarga oid kolleksiyalarda eneolit va bronza davriga mansub ashyolar kam bo'lsa-da, muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, Tojikistondan topilgan ilk bronza davriga oid bronza bolta [1] (A-280) hamda kelib chiqishi noma'lum bo'lgan bronza o'q uchlari [2] (A-444) metallurgiya an'alarining qadimiy ildizlarga ega ekanligini bildiradi.

Shuningdek, Shimoliy Afg'onistondagi Bagram shaharchasi xarobalaridan topilgan tosh haykalchalar [3] (A-307) bronza va qadimgi davr oralig'idagi madaniy uzviylikni ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ashyolar va muzey-qo'riqxonada fondlaridagi shu davrga oid boshqa metall buyumlar vositasida "O'rta Osiyoda ilk metallurgiya" mavzusida ekspozitsiyasi tashkil etish tavsiya qilinadi. Ilk temir va qadimgi davrga oid topilmalar Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston hududlarida yig'ilgan. Xususan, O'sh viloyatidagi Sur va Obishir manzilgohlaridan topilgan III-V asrlarga oid ashyolar [4] (A-631, A-632) hududda qadimgi dehqonchilik va hunarmandchilik an'alarini ko'rsatib berishda muhim ahamiyatga egadir. Albatta O'sh vohasidan yig'ilgan ashyolar Farg'ona vodiysi bilan tarixiy-madaniy jihatdan bitta ildizga egadir.

Ilk o'rta asrlar davri ashyolariga Tojikiston hududidan topilgan sopol haykalcha bo'laklari [5] (A-25) ni kiritish mumkin. Turkmaniston hududidagi Anau va Niso yodgorliklariga oid ashyolar [6] (A-324, A-325) ilk o'rta asr madaniy muhitining ko'rsatib berishi mumkin. Ushbu ashyolar vositasida "Ilk o'rta asrlarda turkiy va sug'd dunyosi" mavzusida ko'rgazma yaratish mumkin.

Rivojlangan o'rta asrlar davri ashyolari, ya'ni X-XIII asrlarga oid kolleksiyalar Xorijiy davlatlar hududidan yig'ilgan kolleksiyalar ichida salmoqli qismini tashkil etadi. Jumladan, Qirg'izistondagi O'zgan (A-72, A-406), Qozog'istondagi Aysha Bibi maqbarasi (A-407) hamda Turkmanistondagi Ko'hna Urganch (A-323, A-487) shaharlari bilan bog'liq kolleksiyalar [7] o'rta asrlar O'rta Osiyo shahar madaniyatini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

XII asrga oid bronza ko'za (A-185), metall buyumlar (A-173, A-470) va sopol dasturxon (A-451) vositasida [8] Buyuk Ipak yo'li doirasidagi faol savdo aloqalarini yoritish

mumkin. Ushbu ashyolar asosida "Ipak yo'li va shaharlar madaniyati" mavzusida ekspozitsiya tashkil etish mumkin.

Temuriylar davriga oid Xorijiy davlatlardan yig'ilgan ashyolari asosan XIV-XV asrlarga oid me'moriy qoplama bo'laklari va mayolika namunalaridan iboratdir. Bu Temuriylar davri san'atining yuqori saviyasini ko'rsatib berishda muhimdir. Jumladan, Qozog'istondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi (A-86) hamda Xo'janddan topilgan me'moriy bezaklar [9] (A-88) bu davr me'morchiligining hududlararo tarqalishini namoyish etishda qo'l keladi. Ular vositasida "Temuriylar davri me'morchiligi va bezak san'ati" mavzusidagi ko'rgazmalar uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin.

Xonliklar davri (XVI-XIX asrlar) ashyolariga XVI-XVIII asrlarga oid Eron hududidan keltirilgan stalaktit idishlar (A-515) va bronza (A-586, A-634) buyumlarni kiritish mumkin. [10] Bu esa xonliklar davrida ularning Eron bilan munosabatlari tarixini yoritishda ahamiyatlidir. Ushbu ashyolar "Xonliklar davrida xalqaro savdo va diplomatiya" mavzusida ko'rgazma tashkil etish imkonini beradi.

Kolleksiyalarning saqlanish holati va restavratsiya masalalariga keladigan bo'lsak, mavjud hisobga olish hujjatlariga ko'ra, ayrim kolleksiyalar, jumladan O'sh viloyatiga oid ashyolar (A-631, A-632) tuzlardan tozalash va yelimlashni talab etadi. Shuningdek, kelib chiqishi noma'lum bronza o'q uchlari (A-444) ilmiy jamoatchilik tomonidan o'rganilishi zarur.

Ko'rib chiqilgan ashyolar vositasida ekspozitsiyasi yaratish imkoniyatlari keng. Xorijiy davlatlarga oid kolleksiyalar asosida quyidagi yo'nalishlarda ekspozitsiyalar tashkil etish mumkin:

"O'rta Osiyo tamaddunlar chorrahasida" "Buyuk Ipak yo'li bo'ylab madaniy almashinuv"

"O'rta asrlar O'rta Osiyo me'morchiligi va bezak san'ati"

"Sharq hunarmandchiligi an'analari"

Ekspozitsiya jarayonida interaktiv xaritalar, hududlararo savdo yo'llari rekonstruksiyasi va 3D modellarni qo'llash uning samaradorligini oshiradi.

Xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalar Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan muhim kolleksiyalardan bo'lib, O'rta Osiyo hududining tarixda yaxlit bir makon sifatida o'rganish va namoyish etish uchun muhim baza bo'lib xizmat qiladi.

**Muhokamalar.** Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalar O'rta Osiyo va unga tutash hududlar tarixini kengroq kontekstda o'rganish imkonini beradi. Ularning ahamiyati shundaki, mazkur ashyolar o'zaro bog'langan tarixiy-madaniy makon taraqqiyotiga oid moddiy dalillar sifatida namoyon bo'ladi.

Eneolit va bronza davriga oid ashyolar son jihatidan ko'p bo'lmasa-da, ularning ilmiy qiymati yuqori. Tojikistondan topilgan ilk bronza davriga oid bronza bolta hamda kelib chiqishi noma'lum bronza o'q uchlari qadimgi metallurgiya an'alarining mintaqada chuqur ildizga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu turdagi ashyolar O'rta Osiyoda metallga ishlov berish, qurol-yarog' va mehnat qurollari ishlab chiqarish bosqichlarini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Shimoliy Afg'onistondagi Bagram shaharchasi xarobalaridan topilgan tosh haykalchalar esa bronza va qadimgi davr oralig'idagi madaniy uzviylikni ko'rsatishda alohida ahamiyatga ega.

Ilk temir va qadimgi davrga oid topilmalar, xususan Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi Sur va Obishir manzilgohlaridan topilgan ashyolar qadimgi dehqonchilik va hunarmandchilik an'alarini yoritishga xizmat qiladi. O'sh vohasi tarixan Farg'ona vodiysi bilan chambarchas bog'liq

bo'lganligi sababli ushbu topilmalar O'zbekiston hududi bilan qo'shni hududlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni ko'rsatishda muhimdir.

Ilk o'rta asrlarga oid Tojikiston hududidan topilgan sopol haykalcha bo'laklari, Turkmanistondagi Anau va Niso yodgorliklariga oid ashyolar mintaqadagi diniy tasavvurlar, san'at va hunarmandchilik jarayonlarini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu davrda turkiy, sug'diy va boshqa etnomadaniy muhitlarning o'zaro aloqalari kuchaygan. Shu bois mazkur ashyolar asosida "Ilk o'rta asrlarda turkiy va sug'd dunyosi" mavzusida ekspozitsiya tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan o'rta asrlar davriga oid kolleksiyalar xorijiy davlatlardan kelgan ashyolar ichida salmoqli o'rin tutadi. Qirg'izistondagi O'zgan, Qozog'istondagi Aysha Bibi maqbarasi, Turkmanistondagi Ko'hna Urganch bilan bog'liq topilmalar X–XIII asrlarda O'rta Osiyo shahar madaniyati, me'morchilik, hunarmandchilik va savdo munosabatlari yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. XII asrga oid bronza ko'za, metall buyumlar va sopol dasturxon Buyuk Ipak yo'li doirasidagi faol iqtisodiy va madaniy aloqalarni yoritish uchun muhim eksponatlar qatoriga kiradi.

Temuriylar davriga oid ashyolar, xususan Qozog'istondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi va Xo'janddan topilgan me'moriy bezaklar XIV–XV asrlarda Temuriylar davri me'morchiligi va bezak san'atining keng hududlarga ta'sir ko'rsatganini namoyish etadi. Mayolika, koshin va me'moriy qoplama bo'laklari bu davr san'atining Samarqand va unga tutash hududlarda ham yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

Xonliklar davriga oid Eron hududidan keltirilgan stalaktit idishlar va bronza buyumlar XVI–XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklari bilan Eron o'rtasidagi savdo, diplomatik va madaniy aloqalarni yoritishga xizmat qiladi. Bu ashyolar "Xonliklar davrida xalqaro savdo va diplomatiya" mavzusidagi ko'rgazmalar uchun muhim manba bo'la oladi.

Kolleksiyalarning saqlanish holati ham alohida e'tiborni talab qiladi. Ayrim ashyolar, xususan O'sh viloyatiga oid buyumlar tuzlardan tozalash va yelimlash ishlariga muhtoj. Kelib chiqishi noma'lum bo'lgan ayrim bronza buyumlar esa qo'shimcha ilmiy ekspertiza, laborator tahlil va qiyosiy o'rganishni talab qiladi. Bu esa fond ashyolarini ilmiy

muomalaga kiritish va ekspozitsion talqinini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlarga oid kolleksiyalar asosida mavzuli ekspozitsiyalar tashkil etish imkoniyatlari keng. Jumladan, "O'rta Osiyo tamaddunlar chorrahasida", "Buyuk Ipak yo'li bo'ylab madaniy almashinuv", "O'rta asrlar O'rta Osiyo me'morchiligi va bezak san'ati", "Sharq hunarmandchiligi an'analari" kabi ko'rgazmalar mazkur kolleksiyalarning ilmiy va ma'rifiy salohiyatini ochib berishi mumkin. Ekspozitsiyada interaktiv xaritalar, savdo yo'llari rekonstruksiya, 3D modellar, raqamli kataloglar va hududlararo madaniy aloqalarni ko'rsatuvchi vizual materiallardan foydalanish uning samaradorligini oshiradi.

**Xulosa.** Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalar O'rta Osiyo va unga tutash hududlarning tarixiy-madaniy aloqalarni o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu kolleksiyalar Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron va Xitoy hududlari bilan bog'liq bo'lib, qadimgi davrdan xonliklar davrigacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni yoritishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur ashyolar mintaqalararo savdo, migratsiya, diniy ta'sir, metallurgiya, hunarmandchilik, shahar madaniyati va me'moriy bezak san'ati taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, rivojlangan o'rta asrlar va Temuriylar davriga oid ashyolar O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi madaniy almashinuv va badiiy an'analar uzviyligini ko'rsatadi.

Kolleksiyalarning bir qismi restavratsiya, konservatsiya va qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarga muhtoj. Shu sababli ularni tizimli ravishda kataloglashtirish, kelib chiqish hududi va davrini aniqlashtirish, laborator tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish muhim vazifalardan biridir.

Umuman olganda, xorijiy davlatlarga oid arxeologik kolleksiyalar Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular O'rta Osiyo tarixini yaxlit madaniy makon sifatida namoyish etish imkonini beradi. Ushbu kolleksiyalar asosida mavzuli ekspozitsiyalar yaratish, interaktiv xaritalar va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish muzeyning ilmiy, ma'rifiy va turistik salohiyatini yanada oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Lord B., Lord G.D. The Manual of Museum Exhibitions. Lanham: Rowman & Littlefield, 2014.
2. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45 sonli inventar kitobi. 80-81 betlar
3. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 49 sonli inventar kitob. 130-142 betlar
4. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 10 sonli inventar kitobi. 215-217 betlar
5. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 72 sonli inventar kitobi. 122-126 betlar
6. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 2 sonli inventar kitobi. 14-15 betlar
7. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 38 sonli inventar kitobi. 72-76 betlar
8. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 38,45,47 sonli inventar kitoblari.
9. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 8,49,57,62 sonli inventar kitoblari
10. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 44 sonli inventar kitobi. 166-168, 199-202 betlar
11. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 49,58,71 sonli inventar kitoblari
12. Baypakov K.M. Srednevekovaya gorodskaya kultura Yujnogo Kazaxstana i Semirechya. Alma-Ata: Nauka, 1986.
13. Bartold V.V. Sochineniya. Tom II. Chast 1: Obshnye raboti po istorii Sredney Azii. Moskva: Nauka, 1963.
14. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. Moskva: Izdatelstvo vostochnoy literatury, 1963.
15. Litvinskiy B.A. O toporax epoxi bronzi iz Tadzhikistana // Izvestiya Akademii nauk Tadzhikskoy SSR. 1961. Vip. 1.
16. Masson V.M. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok. Moskva–Leningrad: Nauka, 1964.
17. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. Severnaya Baktriya - Toxaristan: ocherki istorii i kulturi. Tashkent: Fan, 1990.
18. Rtveladze E.V. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. Tashkent: Universitet mirovoy ekonomiki i diplomatii, 2005.
19. Telcharov A. Osnovi muzeynogo dela. – Moskva: Omega, 2005. – 182 s.;
20. Xmelniyskiy S.G. Mejdru Samanidami i mongolami: arxitektura Sredney Azii XI — nachala XIII vv. Berlin–Riga: Gamajun, 1996.